

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

- **KEYSTOPSHIRIG'I**
- **MAVZU: PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPITENTLIK**

Mavzu: “PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPITENTLIK FANINING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI”

Keysning maqsadi:

~~UMUMIY O'RTA-TA'LIMDA TA'LIM OLUVCHILARNING AMALIY TOPSHIRIQNI
UDDALAY OLISH MAHORATI, SHAXSIY FAZILATLARI VA XULQI BO'YICHA
muammoli vaziyatlarga yechim topishdan iborat.~~

Keysning ob'ekti;


- 1.Fan O'QITUVCHISI
- 2.9-SINF O'QUVCHISI

Keys

9-D sinf o'quvchisi Saidova S. sinfidagi o'quvchilardan o'qishi, xulqi, o'zini tutishi bilan ajralib turadi. So'ngi paytlarda deyarli har kuni sinfidagi o'quvchilar bilan, fan o'qituvchilari bilan muammo chiqarib, nizoga, urush-janjalga sabab bo'layapdi. Shu sinfga kiruvchi ona-tili fan ustozini bilan ham berilgan topshiriqni bajarmasligi, bajarishga xoxishi yo'qligini aytib dars paytida ustoziga gap qaytarib, hurmatsizlik qilib janjallashadi. Darsdan keyin fan o'qituvchisi Saidova S. ni chaqirib suhbat olib boradi. Saidova S. ning aytishicha unda o'qishga qiziqish yo'q ekan, topshiriqlarni ham qila olmasligini aytadi. Ustozini bilan anchagina suhbatdan keyin ota-onasi ajrashib ketganini, onasi 2-marta turmush qurib yashayotgani va 2-turmushidan ham 1 ta farzandi borligini aytadi. Saidova S. ning 8-sinf o'g'il ukasini 2-otasi bilan kelisha olmay xolasinikiga ko'chib ketganini, 2-otasining uning yonida onasini o'pib quchoqlashini, jonim, asalim deb erkalashini bu unga yoqmasligini aytadi. Shu sababli onasi bilan ham har kuni janjallashayotganini aytadi



Keys savollari

- 1. Bunday holatdagi o'quvchi bilan qanday ishlanishi kerak?**
 - 2. O'qituvchini qo'llagan usuli to'g'ri edimi?**
 - 3. Mana shu vaziyatdagi o'quvchiga qanday yordam berish mumkin?**
- 

KEYS SAVOLLARIGA JAVOBLAR



1. Bunday holatdagi o'quvchi bilan qanday ishlanishi kerak? Bunday o'quvchilar bilan dars paytida iloji boricha nizo keltirib chiqarmay, darsdan keyin alohida o'zi bilan ishlash kerak.

2. Bu vaziyatda o'qituvchi to'g'ri yo'l tutgan, chunki o'quvchini o'qishi va xulqiga oilaviy munosabatlar nihoyatda kuchli ta'sir qiladi.

3. Mana shu vaziyatdagi o'quvchiga qanday yordam berish mumkin? Bu o'quvchini onasi bilan qizi o'rtasida bo'layotgan vaziyatlar maktab ma'muriyati, sinf raxbari, fan o'qituvchisi, maktab psixologi va onasi bilan birga muhokama qilinadi, onasiga oilaviy munosabatlari qiziga yaxshi ta'sir qilmayotgani tushuntirilib, qizning mas'ulligi I-otasiga beriladi.



**E'tiboringiz uchun
rahmat!!!**